

SIFAT SO'Z TURKUMINING O'QITISHGA OID MULOHAZALAR

Abdujabborova Shahzoda Islom qizi

ToshDO'TAUning 3-kurs talabasi

baxodirxamidullayev@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilidagi sifat so'z turkumining o'quvchilarga samarali o'qitish metodikasi yoritilgan. Sifatlarning mazmun-mohiyati, turlari, darajalari hamda ularni dars jarayonida interaktiv usullar yordamida o'rgatish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar va metodik yondashuvlar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *sifat, so'z turkumi, grammatika, “Omad loto”, “Zinama zina”, metod.*

Abstract: *This article discusses the methodology for effectively teaching students the adjective word class in the Uzbek language. The content, types, levels of adjectives, and ways to teach them using interactive methods in the classroom are analyzed. Practical recommendations and methodological approaches are also put forward to improve educational effectiveness.*

Keywords: *adjective, word class, grammar, “Omad loto”, “Zinama zina”, method.*

Абстрактный: *В данной статье рассматривается методика эффективного обучения студентов прилагательным в узбекском языке. Анализируется содержание, типы и уровни прилагательных, а также способы их обучения с использованием интерактивных методов в классе. Также предложены практические рекомендации и методические подходы, способствующие повышению эффективности обучения.*

Ключевые слова: *прилагательное, класс слов, грамматика, «Омад лото», «Зинама зина», метод.*

Kirish

Til - eng muhim muloqot vositasidir. Til o'ziga xos tarixiy taraqqiyot tizimiga, murakkab strukturasiga ega. Beryozin quyidagi fikrlarini keltirgan: "Til sistema sifatida aynan matematikaning o'zidir. Matematika aniq fan bo'lib, formulalar munosabati orqali reallashadi. Til ham matematika singari aniqlikni talab qiladi va unda ikki yoki undan ortiq elementlarning o'zaro munosabati bir butunlikni tashkil etadi¹" [Xolmanova, 2020, 12]. Sifat so'z turkumi yordamida predmetlar ta'riflanadi, ularning shakl-shamoyili, rangi, hajmi, xususiyati va holati haqida tushuncha beriladi. Shu boisdan, sifatlar o'quvchilarning estetik tafakkurini, go'zallikni anglash tuyg'usini, dunyoni mushohada qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Umumta'lim maktablarida sifat so'z turkumini o'rgatish nafaqat grammatik bilim berish, balki o'quvchilarning ijodiy fikrlashini, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'qituvchi sifatlarni darsda qanday yondashuvlar asosida o'rgatishi, qanday metodlardan foydalanishi, mashq va topshiriqlarni qanday tanlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ta'limda interaktiv metodlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali darslarning qiziqarli va samarali tashkil etilishi asosiy talab hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sifat so'z turkumining o'qitilish metodikasini chuqur o'rganish va uni takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Ushbu maqolada sifat so'z turkumining mazmun-mohiyati, ularning turlari, darajalari hamda ularni o'qitishda qo'llaniladigan samarali metodik yondashuvlar haqida so'z yuritiladi. O'quvchilar so'z boyligini oshirishda sifat so'z turkumining imkoniyatlari cheksiz. O'quvchilarning sifat haqida sistemali va izchil ma'lumot olishi natijasida, so'roqlar so'z turkumlarini farqlash uchun yordamchi vosita ekanligini tushunib yetadilar: Sifat narsa-buyum belgisini ko'rsatuvchi mustaqil so'zgina bo'lib qolmay, gapdagi vazifasiga ko'ra ot, otlashgan so'z, son kabilarning xususiyatlarini aniqlaydi. Nutqning aniqligi, go'zalligi, rang-barangligi, ta'sirchanligi, ravonligi ko'proq shu turkumdagi

¹ Tilshunoslik nazariyasi(Matn) : darslik\ Zulxumor Xolmonova. — Toshkent: Nodirabegim, 2020. — 256 b.

soʻzlarni bilish, ularni toʻgʻri, oʻrinli qoʻllash bilan bogʻliq (O'zbek tili o'qitish metodikasi B.To'xliyev va boshq².2006.106-bet).

Maktab darslarida sifatlarni oʻqitishning asosiy vazifasi — oʻquvchilarga ushbu soʻz turkumining mohiyatini anglatish, ularni matnda toʻgʻri aniqlash, toʻgʻri ishlatish va xususiyatlariga koʻra turlarga ajrata olish koʻnikmasini shakllantirishdan iborat. Shu jarayonda zamonaviy taʼlim texnologiyalarini — klasterlar, grafik organizerlar, rolly oʻyinlar, metakognitiv yondashuvlar kabi metodlarni qoʻllash tavsiya etiladi. Bu usullar oʻquvchining faolligini oshiradi, darsni jonli va samarali qiladi.

Quyida sifatni oʻqitishga oid taʼlimiy oʻyinlar va metodlar taklif qilinadi.

“Omad lotto” o'yini

Buning uchun bizga kerak bo'ladi:

1. Qopqoqlar
2. Rangli qog'ozlar
3. Qopcha

O'yinni o'tkazish uchun:

Qopqoqlar ichiga savollarni yoki topshiriqni joylashtirishingiz mumkin.

Qopqoqlar orasida 3 ta "omad" qopqoqlarini qoldirasiz ya'ni topshirig'i yo'q bo'ladi.

O'quvchilar o'zlariga qopchadan chiqqan qopqoqdagi topshiriqqa javob berishadi.

Omadli qopqoq qaysi o'quvchiga chiqsa javob bermay baho oladi.

Masalan:

Qopqoqlarda sifatning darajalanishi bo'yicha soʻzlar yozilgan, bu qopqoqlarni orasida 3 dona "Omad" qopqoqlari bor. Har bir oʻquvchi oʻziga tushgan qopqoqdagi savolga javob berib ketadi, kimgadir omad qopqog'i tushsa, oʻsha oʻquvchidan soʻralmasdan yaxshi baho qoʻyiladi.

“Zinama-zina” texnologiyasi:

² B.To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova.O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.

O'qituvchi o'quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo'lgani ma'qul); o'quvchilar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi; o'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi; guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma(yoki rasm, yoki chizma) ko'rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi. Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallar, albatta, sinf doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi;

O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Kuzatish va tahlil metodi

Bu metod o'quvchilarning mustaqil fikrlash, kuzatish va analiz qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilar matn, gap yoki so'z birikmasidan sifatlarni izlaydi, ular qanday belgini bildirayotganini va qanday so'zga bog'langanini tahlil qiladi.

Misol:

Matn: "Bahoriy bog'lar yam-yashil libosga burkandi." O'quvchi "bahoriy" – so'zi qaysi faslga oidligini, "yam-yashil" – rang darajasini bildiruvchi sifat ekanini aniqlaydi.

O'yinga asoslangan metodlar: O'yinlar darsga qiziqish uyg'otadi va bilimni mustahkamlashga yordam beradi. Quyidagi o'yinlarni qo'llash mumkin:

"Sifatlar zanjiri": Bir o'quvchi bir sifat aytadi (masalan, "yaxshi"), keyingisi shu so'zga boshqa sifat qo'shib davom ettiradi ("yaxshi – chiroyli – katta – yorqin...").

“Eng kuchli ta’rif”: O‘quvchilar bir predmetga eng aniq, obrazli sifatlar topishga harakat qilishadi.

Misol: “Gul” uchun – “mayin, xushbo‘y, oppoq, nozik” kabi sifatlar aytish.

Tasviriy metod (rasm asosida)

O‘quvchilarga rasm ko‘rsatiladi va undan foydalanib sifatlarni aytish, gap tuzish topshiriladi. Bu usul vizual idrok orqali til o‘rganishga yordam beradi.

Misol: Quyoshli dalaning rasmi asosida:

“Quyoshli, keng, ochiq, yashil, serg‘un” kabi sifatlarni aniqlash va gaplarda ishlatish.

Interaktiv metodlar: Bu usullarda o‘quvchilar jamoaviy yoki guruhli ishlaydi, grafikalar, jadvallar, klasterlar tuzadi.

Klaster tuzish: “Oq” so‘ziga qanday sifatlar qo‘shilishi mumkinligini klasterda ko‘rsatish:

oq → oq ko‘ylak, oq devor, oq niyat, oq tuyg‘u, oq yigit...

Demak, sifat so‘z turkumining o‘qitilishi bo‘yicha puxta metodik yondashuv, dars mazmunini to‘g‘ri rejalashtirish va interaktiv usullardan oqilona foydalanish orqali o‘quvchilarda nafaqat grammatik bilim, balki estetik va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyati tug‘iladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. B.To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova.O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.
2. Tilshunoslik nazariyasi(Matn): darslik\ Zulxumor Xolmonova. — Toshkent: Nodirabegim, 2020. —256 b.
3. N .U luqov. T ilsh u n o s l i k n a \ . a r i v a s i . O ' q i n q o i l a n m a . - Γ . : « Barkamol fav/, mediya», 2016, 192 bet.